# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH TARMOG‘INI MODERNIZATSIYA QILISH, JADAL VA INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING 2021 — 2025-YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

Qurilish tarmog‘ini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta’minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg‘or joriy etish maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish va ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta’minlash;

shaharsozlik faoliyatining sifati va xavfsizligini oshirish;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, qurilish tarmog‘i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish strategiyasini 2021 — 2025-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq belgilansin:

2025-yil oxiriga borib “Biznes yuritish” xalqaro indeksida (Doing Business Index) “qurilishga ruxsatnomalar olish” (Dealing with Construction Permits) yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining pozitsiyasini joriy 61,7 balldan 78,2 ballgacha yaxshilash;

O‘zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda 2025-yilga borib milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini kamida 50 foiz darajasida xalqaro normativ va standartlar bilan uyg‘unlashtirishga erishish;

2025-yilga borib shaharlarning barchasini va shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olishga erishish;

2025-yilga borib “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida qo‘shimcha to‘rtta elektron platforma yaratilishini, shuningdek, ularning idoralararo axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash;

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning “hajm” uslubini joriy etish ulushini 2025-yilga borib respublikadagi qurilish obyektlari umumiy sonining 50 foizigacha yetkazish;

2025-yilga borib arxitektura va qurilish sohasidagi oliy ta’lim muassasalaridan birining xalqaro tan olingan tashkilotlar reytinglaridagi Osiyo mamlakatlarining eng yaxshi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga (TOP-1000) kirishi.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab qurilish ustidan jamoat nazoratini ta’minlash maqsadida:

a) aholi punktlarining bosh rejalari jamoat muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda tasdiqlanadi. Bunda aholi punktlari bosh rejalarining jamoat muhokamasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

**I bosqich** — fuqarolarni jamoat muhokamasini o‘tkazish muddatlari, joyi va tartibi bilan tanishtirish;

**II bosqich** — aholi punkti bosh rejasining loyihasi bo‘yicha jamoat muhokamalarini (yashovchilar, yerdan foydalanuvchilar va ko‘chmas mulk obyektlari mulkdorlarining muhokamalari, ijtimoiy so‘rovlari, fikrlarini to‘plash va boshqa usullar) o‘tkazish;

**III bosqich** — jamoat muhokamasining qayd etilgan natijalari asosida jamoat fikrini tahlil qilish;

**IV bosqich** — jamoat muhokamasi natijalari haqida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan internet tarmog‘i orqali aholini xabardor qilish;

b) aholi punktlari bosh rejalarining yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiqligi yuzasidan jamoat ekspertizasini amalga oshirish imkoniyati joriy etiladi;

v) aholi punktining taklif etilgan bosh rejasidan norozi bo‘lgan jamoat nazorati subyektlarining tashabbusiga ko‘ra aholi punktining muqobil bosh rejasini ishlab chiqish yoki unga o‘zgartirish (tuzatish) kiritish mexanizmi joriy etiladi;

g) aholi punktlari bosh rejalarining jamoat muhokamasini tashkil etish mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga yuklanadi.

5. Belgilansinki, 2021-yil 1-martdan boshlab:

*Oldingi tahrirga qarang.*

a) ikki qavatdan yuqori (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarni, shu jumladan yakka tartibdagi uy-joylarni qurish hamda rekonstruksiya qilish obyektning loyiha hujjatlari majburiy ekspertizadan o‘tkazilgan hamda obyektning Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalari tomonidan davlat qurilish nazorati o‘rnatilgan holda amalga oshiriladi;

*(5-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

b) quyidagilar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

jismoniy va yuridik shaxslarga, asosiy faoliyat turi sifatida qurilish-montaj ishlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar bundan mustasno, mustaqil ravishda (xo‘jalik usulida), qurilish tashkiloti bilan qurilish pudrati shartnomasini tuzmasdan ikki qavatdan yuqori (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

*(5-band “b” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-*

*sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

aholi punktlari hududlarining funksional zonalarida joylashgan, bunday turdagi qurilish uchun mo‘ljallanmagan yer uchastkalarida ko‘p qavatli ko‘p kvartirali uylarni qurish;

loyiha hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazmasdan mavjud bino va inshootlarning, shu jumladan yakka tartibdagi uy-joylarning qavatlari sonini ko‘paytirish (ustki qavat qurish);

o‘zgartirilgan loyiha hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazmasdan qurilayotgan bino va inshootlarning qavatlari sonini (loyiha hujjatlarini o‘zgartirish yo‘li bilan) ko‘paytirish taqiqlanadi;

) loyiha hujjatlari bo‘yicha ijobiy ekspert xulosasi ekspert tashkiloti tomonidan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi “Ekspert xulosalarining yagona reyestri”ga kiritilgan taqdirda haqiqiy deb tan olinadi, davlat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan loyiha hujjatlari bo‘yicha ekspert xulosalari bundan mustasno.

*Oldingi tahrirga qarang.*

6. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga texnik tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyati sohasidagi xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish bo‘yicha ishlar (tovarlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini, keyinchalik ular to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran uch kundan kechiktirmay davlat xaridlari maxsus axborot portalida joylashtirgan holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshirishga ruxsat berilsin.

*(6-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (B.I. Zakirov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

*(7-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

ikki oy muddatda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi sohasidagi seysmik va yong‘in xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tiborni qaratgan holda, ushbu sohada huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

2020-yil 1-dekabrgacha Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi vaqtincha nizom loyihasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilishini;

2021-yil 1-iyungacha birlamchi ruxsat berish hujjatlari, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ularni ekspertizadan oʻtkazishdan tortib obyektlarni foydalanishga topshirishgacha boʻlgan barcha qurilish jarayonlarini nazarda tutuvchi Yagona maʼmuriy qurilish reglamenti ishlab chiqilishini;

2021-yil 1-iyungacha ilgʻor xalqaro tajribani oʻrganish asosida loyiha-qidiruv va qurilish faoliyatiga sugʻurtalash tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish boʻyicha takliflar Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

2021-yil 1-avgustgacha Qurilish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens tizimining joriy etilishini, 2022-yil 1-yanvargacha esa ISO 37001 xalqaro standartiga (Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi) muvofiqlik sertifikati olinishini;

2021-yil 1-sentabrgacha fuqarolarga qurilayotgan obyektlar toʻgʻrisida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish obyektlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish (foto va videomateriallar koʻrinishida) va ularni qurilish sohasidagi nazorat boʻyicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi “Ogoh fuqaro” elektron tizimining yaratilishini;

2022-yil 1-martgacha Xalqaro ijtimoiy taʼminot assotsiatsiyasining (ISSA) konsepsiyasini joriy etishga asoslangan “Qurilish maydonchalarida jarohatlanishga barham berish” dasturining ishlab chiqilishini;

2022-yil 1-iyulgacha shahar muhiti elementlarining maqsadi, anʼanaviy arxitektura va madaniyati, shuningdek, joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy “dizayn-kod”ning ishlab chiqilishi va joriy etilishini;

*Oldingi tahrirga qarang.*

2022-yildan boshlab, har yili 1-dekabrgacha joriy yil vazifalarining ijro etilishini chuqur tahlil qilgan holda kelgusi yilda ushbu Strategiya doirasida amalga oshirish koʻzda tutilgan chora-tadbirlar boʻyicha reja-grafiklarning ishlab chiqilishi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini taʼminlasin.

*(7-bandning oʻninchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

8. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov) hamda Tashqi ishlar vazirligi (A.X. Kamilov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-iyungacha muddatda Xalqaro mehnat tashkilotining Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi toʻgʻrisidagi 167-son Konvensiyasiga Oʻzbekiston Respublikasining qoʻshilishi maqsadga muvofiqligini oʻrganib chiqsin va oʻrganish natijalariga koʻra Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflar kiritsin.

9. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi (I.I. Norqulov) har yili Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda Strategiyani amalga oshirishga doir “Yoʻl xaritasi”da koʻrsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda yoʻnalishlar boʻyicha zarur mablagʻlar ajratilishini nazarda tutsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

10. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi va Uy-joy kommunal xoʻjaligi bosh boshqarmasi hamda ularning tuman boʻlimlari Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi boʻysunuviga berilsin.

*(10-bandning birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

Qurilish vazirligi (B.I. Zakirov) ikki oy muddatda Toshkent shahri Qurilish bosh boshqarmasi va Toshkent shahri tumanlari qurilish boʻlimlarining vazifalari, funksiyalari va tashkiliy tuzilmalarini qayta koʻrib chiqsin hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritsin.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga:

Strategiya oʻz vaqtida va samarali ijro etilishi ustidan parlament nazoratini oʻrnatish;

vazirlik va idoralar, shuningdek, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Strategiyani amalga oshirish doirasida qilingan ishlar toʻgʻrisidagi hisobotlarini har chorakda Senat va Qonunchilik palatasi majlislarida eshitib borish tavsiya etilsin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilsin.

13. Qurilish vazirligi (B.I. Zakirov) boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda ushbu Farmondan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bosh vazir oʻrinbosarlari (A.J. Ramatov, J.A. Qoʻchqorov, S.U. Umurzakov):

mutasaddi vazirlik va idoralarning ushbu Farmonda nazarda tutilgan koʻrsatkichlarga toʻliq va oʻz vaqtida erishilishini taʼminlash boʻyicha birinchi navbatdagi vazifalarini belgilasin hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirsin;

zarur mablagʻlarning oʻz vaqtida ajratilishi, manzilli sarflanishi va toʻliq oʻzlashtirilishini taʼminlasin;

har oyda masʼul shaxslarning qilingan ishlar toʻgʻrisidagi hisobotlarini eshitib borsin;

zimmasiga yuklangan vazifalarning toʻliq va oʻz vaqtida bajarilishini taʼminlamagan mansabdor shaxslarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod qilishgacha boʻlgan taʼsir choralarini qoʻllash toʻgʻrisida takliflar kiritib borsin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vaziri B.I. Zakirov:

*(14-bandning oltinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

ikki hafta muddatda qurilish tarmogʻini rivojlantirishning belgilab qoʻyilgan ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha idoralararo ishchi guruhlarini tuzsin;

ushbu Farmonda nazarda tutilgan koʻrsatkichlarga erishish jarayonida vujudga keladigan joriy muammolarni joyida tezkor hal etish choralarini koʻrsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

15. Mazkur Farmonning ijrosini har chorakda muhokama qilish, ijro uchun masʼul organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari A.J. Ramatov hamda qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vaziri B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin.

*(15-bandning birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi toʻgʻrisida axborot taqdim etilsin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 27-noyabr,
PF-6119-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmoniga
1-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan

## STRATEGIYASI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

Inson yashash faoliyatining xavfsiz va qulay muhitini shakllantirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Qurilish tarmog‘i iqtisodiyotning barcha sohalari moddiy-texnik bazasini yaratishda hamda aholining shinam uy, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi xizmatlari, shuningdek, madaniy xordiqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qurilish sohasidagi davlat siyosati mamlakat, mintaqalar va tarmoqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlash maqsadida innovatsiyalar, investitsiyalar, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish orqali tarmoq salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga qurilish tarmog‘ining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi tizimli muammolar mavjud:

shaharsozlik faoliyatini texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar sezilarli darajada eskirib qoldi hamda arxitektura-qurilish ishlarini olib borishning zamonaviy uslublarini, energiya tejamkor texnologiyalar va materiallarni keng qo‘llash imkoniyatlarini inobatga olmaydi;

ko‘pchilik aholi punktlarida bosh rejalar mavjud emasligi yoki bino va inshootlarni qurishda ularga rioya qilinmasligi hududlarda kompleks ravishda qurilish olib borish, ishlab chiqarish va infrastruktura obyektlarini joylashtirish, tadbirkorlik, ishchanlik va investitsiya faolligini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

loyiha-qidiruv ishlarining mavjud bozori tendensiyalari ko‘p hollarda loyiha ishining ilg‘or rivojlanishi, yuqori texnologiyali, zamonaviy va o‘ziga xos arxitektura loyihalarini yaratish uchun shart-sharoit tug‘dirmaydi;

shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillarining mukammal emasligi va oqibatda xodimlarni

qurilish-montaj ishlariga noqonuniy asosda (kerakli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan) jalb qilish, oʻzboshimchalik bilan qurilgan binolarning koʻpayishi, qurilish tashkilotlari xodimlarining zarur bilim va malakaga ega emasligi qurilish tarmogʻining investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda hamda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda, qurilgan bino va inshootlardan keyinchalik foydalanishda xavfsizlik talablarining buzilishiga olib kelmoqda;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi investitsiya jarayonlari ishtirokchilari va shaharsozlik faoliyati subyektlariga davlat xizmatlarini koʻrsatishning maksimal shaffofligi va tezkorligini taʼminlash imkonini bermaydi;

amaliy qurilish fanining rivojlanmaganligi, oliy taʼlim muassasalarining ilmiy va moddiy-texnik salohiyati zaifligi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish imkonini bermaydi.

Yuqorida koʻrsatilgan muammolar qurilish tarmogʻining jadal innovatsion rivojlanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan qurilish tarmogʻini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qurilish tarmogʻini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga moʻljallangan strategiyasi (keyingi oʻrinlarda — Strategiya) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi PF-5963-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan.

Strategiya xorijiy mamlakatlar qurilish sohasidagi strukturaviy oʻzgarishlarining eng yaxshi tajribalari va shaharsozlik faoliyati rivojlanishining jahon tendensiyalarini oʻrganish asosida 2021 — 2025-yillarda qurilish tarmogʻini rivojlantirish maqsadlari va ustuvorliklari, isloh qilish yoʻnalishlarini belgilaydi.

## 2-bob. Strategiyaning maqsad hamda vazifalari

Qurilish tarmogʻida boshqaruvning zamonaviy uslublarini shakllantirish, loyihalarni amalga oshirishda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va innovatsion yechimlarni joriy etishga yoʻnaltirilgan oʻzgarishlarni amalga oshirish Strategiya maqsadi hisoblanadi.

Strategiya quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni nazarda tutadi:

hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish va ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta'minlash;

shaharsozlik faoliyatining sifati va xavfsizligini oshirish;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, qurilish tarmog'i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish.

## 3-bob. Strategiyaning asosiy yo'nalishlari

### § 1. Hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish va ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta'minlash

Hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish hududdan foydalanish va uni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini uyg'unlashtirish asosida ularni barqaror rivojlantirish orqali, quyidagi tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

a) insonning ham aholi zich bo'lgan, ham aholi zich bo'lmagan hududlarda munosib yashashi uchun sharoitlarni yaratish va saqlash;

b) mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishi uchun teng shart-sharoitlarni yaratish, rivojlanishning uzoq muddatli salohiyatini saqlash va lozim darajada ta'minlash;

v) aholi punktlarining ko'p markazli tuzilishini rivojlantirish, urbanistik vositalar yordamida shahar va qishloq o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash;

g) yangi aholi zich bo'lmagan hududlarni o'zlashtirishdan ko'ra mavjud aholi punktlari hududlarini yangilash va ulardan intensiv foydalanishga ustunlik berish, erdan ehtiyotkorona foydalanish, shuningdek, kelajakda makondan foydalanishning turli imkoniyatlarini saqlab qolish;

d) aholi zich bo'lmagan hududlar tizimini himoya qilish hamda shakllangan tabiiy va madaniy xilma-xillikni saqlash;

e) zaif rivojlangan infratuzilmaga ega aholi punktini shaharlar va boshqa rivojlanish markazlari bilan hamkorlik asosida mustaqil (o'zini o'zi ta'minlay oladigan) funksional birlikka aylantirish;

j) xizmatlar va transport/muhandislik infratuzilmasining aholi zich bo'lgan va aholi zich bo'lmagan hududlar tizimiga samarali

muvofiqligi, butun mamlakat hududida kommunikatsiyalardan foydalanish va axborot olish imkoniyati, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish va unga ko‘maklashish;

z) aholi punktlarida yaxlit transport tizimining shakllanishiga ko‘maklashish va jamoat transportiga ustunlik berish;

i) transport/muhandislik infratuzilmasining atrof-muhitga salbiy ta’sirini maksimal darajada qisqartirish, boshqa kutiladigan salbiy ta’sirlarni yengish;

k) tarixiy va madaniy aloqalar, madaniy va tabiiy landshaftlar, ularning o‘ziga xos belgilari, tarixiy va tabiiy yodgorliklarni himoya qilish va saqlash;

l) qo‘riqlanadigan hududlar va rekreatsiya hududlarini saqlash va rivojlantirish; tuproq, suv, flora, fauna va iqlimni saqlash, himoya qilish va tiklash;

m) tegishli rejalashtirish yechimlari, muhandislik va tashkiliy-xo‘jalik chora-tadbirlari orqali aholi zich bo‘lgan va aholi zich bo‘lmagan hududlarni tabiiy, texnogen va ijtimoiy tahdidlar hamda favqulodda vaziyatlardan himoya qilish;

n) qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish uchun istiqbolli joylarni saqlab qolish, atmosfera havosidan issiqxona gazlarini singdirishga yordam beruvchi makon-hududiy yechimlarni yaratish;

o) tabiiy va madaniy landshaftlarni, ayniqsa qishloq xo‘jaligi hududlari va ko‘p funksiyali ixcham aholi punktlarini rivojlantirishga ko‘maklashish yo‘li bilan saqlash va barqaror rivojlantirish;

p) makon va shaharsozlik bo‘yicha rejalashtirish jarayonida seysmik holatni hisobga olish.

Insonning yashash faoliyati uchun munosib muhitni, atrof-muhit, tabiiy resurslar va madaniy merosni muhofaza qilishni ta’minlash hamda ommaviy va shaxsiy manfaatlar muvozanatiga erishish uchun hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish masalasida jamoatchilikning rolini oshirish ham maqsadga muvofiqdir.

Bayon etilganlar munosabati bilan Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

1) ijtimoiy-iqtisodiy va investitsiyaviy rivojlantirishning uzoq muddatli prognozlari bilan bog‘liqlikda yangi aholi punktlarini joylashtirish va mavjud aholi punktlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyatni birlashtirish maqsadida mamlakatning butun hududida

joylashtirishning bosh sxemasini hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar hududlarida tumanlarni rejalashtirish sxemalarini ishlab chiqish;

2) shahar muhiti elementlarining maqsadi, an'anaviy arxitektura va madaniyat, shuningdek, joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy "Dizayn-kod"ni ishlab chiqish va joriy etish;

3) shahar muhitini matematik (3D) modellashtirish boʻyicha standartlar majmuini joriy etgan holda "Aqlli shahar" texnologiyalari elementlaridan foydalanish;

4) 2025-yilga borib aholi punktlarining hududlarni rivojlantirish sxemalari (bosh rejalar, bosh rejalar sxemalari, hududni arxitektura-rejalashtirish yuzasidan tashkillashtirish) bilan toʻliq qamrab olinishiga erishish;

5) aholi punktlarining bosh rejalariga kompleks shaharsozlik jihatidan rivojlantirishni strategik rejalashtirish, shuningdek, yerdan foydalanish va aholi punktlari hududlarida qurilish olib borishni tartibga solishni ta'minlovchi ommaviy hujjat maqomini berish;

6) aholi punktlarining bosh rejalarining jamoat muhokamasi natijalarini inobatga olgan holda ularni tasdiqlash tartibini amaliyotga joriy etish;

7) shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va qoʻllashning yagona standartlarini yaratish;

8) shaharni rejalashtirish sohasidagi ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish, shu jumladan arxitektura va shaharsozlik loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish uchun ishonchli obroʻ va tajribaga ega boʻlgan yetakchi xorijiy mutaxassislar va tashkilotlarni jalb qilish.

### § 2. Shaharsozlik faoliyati sifatini va xavfsizligini oshirish

Bino va inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanishning zamonaviy standartlari mavjud boʻlganda hamda shaharsozlik faoliyati subyektlari ularga rioya qilganda bino va inshootlarning lozim darajadagi sifatini va xavfsizligini ta'minlash mumkin boʻladi. Shuningdek, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda mehnatni muhofaza qilish, qurilish obyektlarida baxtsiz hodisalarning oldini olish tizimlarini takomillashtirish zarur.

Ushbu yoʻnalishda Strategiyani amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

a) bino va inshootlarni loyihalashtirish va qurish qismida texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish eng yaxshi xorijiy tajribani inobatga olishi lozim;

b) bino va inshootlar inson salomatligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, xavfsizlik va obodonlashtirish talablariga muvofiq boʻlishi kerak;

v) bino va inshootlar shunday loyihalashtirilishi va qurilishi kerakki, toki ularning maksimal darajada uzoq yashashi taʼminlansin;

g) binolar, inshootlar va jamoat maskanlarini loyihalashtirish va qurish qismida texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar quyidagilar boʻyicha talablarni nazarda tutishi lozim:

bino va inshootlarning arxitektura parametrlari va estetik tavsiflari;

bino va inshootlarning konstruktiv mustahkamligi, barqarorligi va ishonchliligi;

bino va inshootlardan foydalanish davrida yongʻin xavfsizligi, salomatlik va atrof-muhitni muhofaza qilish, xavfsizlik;

binolar, inshootlar va jamoat maskanlaridan imkoniyatlari cheklangan shaxslarning foydalanishi mumkinligini taʼminlash;

binolarning energiya tejamkorligi va ularning shovqindan himoya qilishi;

bino va inshootlarda qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish.

Bayon etilganlar munosabati bilan Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

1) hududlarning geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda texnik tartibga solish sohasidagi milliy hujjatlarni xorijiy normativ hujjatlar bilan uygʻunlashtirish;

2) bino va inshootlarning xavfsizligi va energiya tejamkorligini oshirish, obyektning hayotiy davri mobaynida innovatsion texnologiyalarni qoʻllashga yoʻnaltirilgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

3) bino va inshootlar konstruksiyalari va asoslarining, shu jumladan murakkab tabiiy va tabiiy-texnogen sharoitlardagi yongʻin va mexanik xavfsizligi boʻyicha talablarni oʻz ichiga oluvchi bino va inshootlarning xavfsizligi boʻyicha umumiy texnik reglamentni ishlab chiqish;

4) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida ma’lumotlar bazalariga axborotni jamlagan holda, tayanch konstruksiyalarning “oʻzini tutishi”ni kuzatib borishga, oʻz vaqtida baxtsiz hodisalarning oldini olishga va xavfsizlikni oshirishga yoʻnaltirilgan bino va inshootlarning konstruktiv elementlarini “buzmaydigan nazorat qilish” tizimlarini joriy etish;

5) jahon tajribasini oʻrganish asosida loyiha-qidiruv va qurilish faoliyatiga xavf-xatarlarni sugʻurta qilish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;

6) davlat xizmatlarini koʻrsatuvchi va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshiruvchi, loyiha hujjatlarini ekspertizadan oʻtkazuvchi, shuningdek, qurilish sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlarning xodimlarini davriy attestatsiyadan oʻtkazish tizimini joriy etish;

7) yetakchi xorijiy arxitektorlar, muhandis-konstruktorlar va quruvchilarni jalb qilgan holda arxitektura va qurilish sohasida treninglar, seminarlar, mahorat darslari, oʻquv kurslarini tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari, xususan Oʻzbekiston Arxitektorlar uyushmasi, Oʻzbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasi rolini oshirish;

8) injiniring xizmatlarini koʻrsatishda (shu jumladan mualliflik va texnik nazorat) “autsorsing” tamoyillarini joriy etish;

9) loyiha va pudrat ishiga “ustoz-shogird” tamoyillarini tatbiq qilish;

10) shaharsozlik faoliyatining barcha ishtirokchilari (buyurtmachi, loyihachi, pudratchi, foydalanuvchi tashkilot) tomonidan qurilish obyekti hayotiy davrining barcha bosqichlarida axborot modellashtirishning zamonaviy texnologiyalari qoʻllanilishini ragʻbatlantirish;

11) Xalqaro mehnat tashkilotining Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi toʻgʻrisidagi 167-son Konvensiyasiga Oʻzbekiston Respublikasining qoʻshilishi choralarini koʻrish;

12) qurilish maydonchalarida potensial tahdidlarni aniqlash, kasbiy xavf-xatarlarni baholash, nazorat qilish va boshqarishni nazarda tutuvchi mehnat xavfsizligi standartlari va ISO : 45001 xalqaro standarti tizimiga muvofiq Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini qurilish tarmogʻi obyektlarida joriy etishni ta’minlash;

13) Xalqaro ijtimoiy ta’minot assotsiatsiyasining (ISSA) konsepsiyasini joriy etishga asoslangan “Qurilish maydonchalarida jarohatlanishga barham berish” dasturini ishlab chiqish;

14) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarni kelgusida rivojlantirish maqsadida qurilish pudrat tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislari malakasini oshirish va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassisning malaka sertifikatini olish tizimini joriy etish;

15) xodimlarning ish joylarida xavfsizlik va gigiyena talablariga rioya qilish masalalarida ishtirok etishi orqali kadrlarga investitsiya qilish, motivatsiya tizimini joriy etish.

## § 3. Shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, qurilish tarmog‘i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish

Shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligi ishchanlik va investitsiya muhiti yaxshilanishining garovi hisoblanadi. Ruxsat berish tartib-taomillarining izchil takomillashtirilishi ruxsatnomalar tizimini erkinlashtirish va isloh qilish uchun mustahkam poydevor, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Strategiya doirasida ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlash nazarda tutiladi:

1) “Biznes yuritish” xalqaro indeksida “Qurilishga ruxsatnomalar olish” yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining pozitsiyasini yaxshilash;

2) shaharsozlik faoliyati subyektlari uchun litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish;

3) tadbirkorlik faoliyati obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarini ajratish bo‘yicha ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish;

4) elektron tender platformasi hamda loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini joriy etish orqali loyiha va pudrat ishlarining davlat xaridlari tartib-taomillarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish;

5) nodavlat tashkilotlari tomonidan loyihalashtirish va qurilish sohasidagi mutaxassislarni kasbiy sertifikatlashtirish, shuningdek, ushbu nodavlat tashkilotlarining Qurilish vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilinishi tizimini joriy etish;

6) zarur hollarda xalqaro moliya institutlari, xalqaro konsalting kompaniyalari va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlik qilish orqali

qurilishda narx shakllanishi tartibini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va tegishli yechimlarni ishlab chiqish;

7) loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning “hajm” uslubini bosqichma-bosqich joriy etish va uning asosida shaharsozlik faoliyati subyektlari (buyurtmachi, loyihachi va pudratchi) tomonidan qurilish-montaj ishlarining amalga oshirilishi:

I bosqich — “resurs” va “hajm” uslublarini solishtirish va uning natijalariga ko‘ra “hajm” uslubini joriy etish bo‘yicha takliflarni tayyorlash;

II bosqich — markazlashtirilmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar doirasida “hajm” uslubini tajriba-sinov tarzida qo‘llash;

III bosqich — shaharsozlik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda “hajm” uslubini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

8) qurilish materiallarining batafsil texnik tavsiflarini ko‘rsatish (identifikatsiya qilish) uchun mo‘ljallangan “Qurilish materiallari milliy klassifikatori” elektron platformasini joriy etish;

9) qurilish qiymatini aniqlashning bozor tamoyillari hamda buyurtmachi, loyihachi va pudratchi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga asoslangan muqobil mexanizmlarini parallel ravishda ishlab chiqqan holda loyihaoldi va loyiha hujjatlarining smeta qismini davlat ekspertizasidan o‘tkazishga doir talablarni bekor qilish;

10) davlat va unga tenglashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlar bo‘yicha qurilish sohasidagi texnik buyurtmachilar tizimini xususiy tadbirkorlik subyektlarini texnik buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirishga jalb qilish hisobiga tubdan isloh qilish;

11) buyurtmachi funksiyalarini amalga oshiruvchi xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslublari (benchmarking, ERP-tizimlari, hodisalarni modellashtirish va boshqalar) qo‘llanilishini rag‘batlantirish;

12) loyiha tashabbuskorlari (yuridik va jismoniy shaxslar) uchun loyihani boshqarish bo‘yicha zamonaviy xizmatlarni (buyurtmachi xizmatlari, injiniring xizmatlari va boshqalar) ommalashtirish;

13) quyidagilar orqali davlat loyiha institutlarini transformatsiya qilish:

davlat loyiha-qidiruv tashkilotlarini moliyaviy va texnologik auditdan o‘tkazish uchun xorijiy ekspertlarni jalb qilish;

har bir davlat loyiha instituti bo‘yicha rivojlantirishning tijorat konsepsiyalarini, shu jumladan texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish;

investitsiyalar jalb qilish va (yoki) qurilish tashkilotlarining davlat loyiha tashkilotlari bilan kooperatsiyasini ta’minlash maqsadida investorlar qidirish hamda investorlar va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan qurilish kompaniyalari bilan muzokaralar o‘tkazish;

loyiha-qidiruv tashkilotlari faoliyatida davlat ishtiroki ulushini qisqartirish;

14) ko‘chmas mulk obyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng ipoteka obyektini rasmiylashtirish sharti bilan tijorat banklari tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish davrida beriladigan, qurilishning ulushli ishtirokchilarining ipoteka krediti mablag‘lari hisobiga qurilish pudrat tashkilotlarini moliyalashtirishni tezlashtirish imkoniyatini ta’minlash;

15) istiqbolli shaharsozlik salohiyatiga ega bo‘lgan, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infrastrukturasining yetarli quvvati bilan ta’minlangan ko‘p kvartirali uylarni qurish uchun yer uchastkalarini quyidagilarni hisobga olgan holda auksionga qo‘yish:

aholi tomonidan uy-joy mulkining istiqbolda sotib olinishiga prognoz ehtiyojni o‘rganish va tahlil qilish;

investorlar tomonidan tegishli investitsiya shartlarining kafolatlangan tarzda bajarilishini ta’minlovchi talablarni qo‘yish;

16) ulushli ishtirok etish asosida uy-joy qurishni imtiyozli kreditlash uchun xalqaro moliya institutlari mablag‘larini faol jalb qilish siyosatini davom ettirish;

17) xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda va istiqbolda urbanizatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish asosida investorlarga uy-joy komplekslarini yaratish loyihalarini amalga oshirishni taklif qilishga yo‘naltirilgan respublika mintaqalaridagi seliteb hududlarni rivojlantirishning tijorat konsepsiyalarini ishlab chiqish;

18) xomashyo resurslarini tejashga yo‘naltirilgan sanoat, qurilish va qattiq maishiy chiqindilarni chuqur qayta ishlash orqali qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarishga joriy etish;

19) qurilishda energiya jihatidan samarador va energiya tejamkor materiallarni (gazobeton, penobeton, polistirolbeton, bazalt asosida issiqlik saqlovchi materiallar, polistirol bilan to‘ldirilgan sendvich panellar va boshqalar), asbob-uskuna va priborlarni (quyosh

panellari va konvektorlari, mavjudlik va harakat datchiklari, termoregulyatorlar, elektron santexnika va boshqalar) qoʻllashni kengaytirish;

20) bino va inshootlarning energiya tejamkorlik sinflari boʻyicha tahliliy maʼlumotlar bazasini shakllantirgan holda ularning energetik auditi tizimini keng joriy etish;

21) keyinchalik eksportga yoʻnaltirilgan mahsulot ishlab chiqargan holda tabiiy dekorativ va pardozlash toshlari (granit, marmar, travertin va boshqalar) zaxiralarining yangi konlarini oʻzlashtirish boʻyicha geologiya-qidiruv ishlarini olib borish;

22) anʼanaviy loy gʻisht oʻrnini bosuvchi muqobil qurilish materiallari zaxirasi mavjudligi va ularni qoʻllash imkoniyatlarini oʻrganish;

23) resurs tejamkor texnologiyalarni, tabiiy gaz oʻrnini bosuvchi yonilgʻi-energetika resurslarining qayta tiklanadigan va muqobil turlarini qoʻllagan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

24) qurilish maqsadidagi tayyor mahsulotlarni mahalliylashtirish darajasini oshirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

25) energiya tejamkor texnologiyalarni qoʻllagan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlari joriy etilgan korxonalarni ragʻbatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

26) eng yaxshi xorijiy tajribani oʻrganishni hisobga olgan holda tashkilotlar kooperatsiyasi asosida klaster qurilish tizimini (ishlab chiqarish-qurilish, investitsiya-qurilish va loyiha-qurilish klasterlari) joriy etish;

27) klaster usulida tajriba almashish hamda qurilish-montaj jarayonlarining alohida yoʻnalishlari boʻyicha ustalar va tor malakali mutaxassislarni oʻqitish tizimini tatbiq qilish.

## § 4. Shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

Shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish koʻplab yoʻnalishlar boʻyicha dolzarbdir. Qurilish bozorining muvaffaqiyatli ishtirokchilari deyarli barcha biznes-jarayonlarni (kadrlarni tanlab olishdan tortib shartnomalarning bajarilishini nazorat qilishgacha) qamrab oluvchi raqamli axborot texnologiyalarini oʻz faoliyatiga faol joriy etmoqda. Toʻldirilgan reallik texnologiyalari, ashyolar interneti, 3D-printing, generativ dizayn, mashina taʼlimi, bino va inshootlarni uch oʻlchamli taqdim etishga asoslangan texnologiyalar hamda insonlarga qaror

qabul qilishni osonlashtiruvchi boshqa ko‘plab texnologiyalar tobora ommalashib bormoqda.

Davlatning shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi asosiy e’tibori quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

shaharsozlik tartib-taomillarini raqamli formatda (elektron shakl va ko‘rinishda) amalga oshirish;

shaharsozlik faoliyati hujjatlarining elektron shaklda saqlanishini ta’minlash;

shaharsozlik faoliyati jarayonlari haqida avtomatik tarzda to‘planadigan statistik axborotni yig‘ish va tahlil qilish;

qurilish obyektlari hayotiy davrining barcha bosqichlarida ularni axborot modellashtirish texnologiyasini joriy etish.

Bayon etilganlar munosabati bilan Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

1) qurilish obyektlarini to‘laqonli monitoring qilish, qurilish ishlari sifatini kompleks ravishda nazorat qilish, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish, qurilish sohasidagi xarid tartib-taomillarining shaffofligi va samaradorligi, qurilish-pudrat va loyiha tashkilotlarining reyting tizimini rivojlantirishni ta’minlovchi “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining joriy etilgan elektron platformalari respublikaning barcha mintaqalarida ishlash qamroviga erishish;

2) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining elektron platformalari va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat shaharsozlik kadastri” geografik axborot tizimini (keyingi o‘rinlarda — Geoportal) idoralararo axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish;

3) Geoportal ma’lumotlar bazalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarining (hududlarning bosh rejalari va hududni arxitektura-rejalashtirish yuzasidan tashkillashtirish) to‘liq kiritilishini ta’minlash;

4) jamoatchilik va investorlarning qurilish sohasidagi normativ hujjatlardan ochiq foydalanishini ta’minlash uchun Texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ilmiy-texnik kutubxonasi negizida “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlar” ommaviy elektron ma’lumotlar bazasini yaratish;

5) fuqarolarga qurilayotgan obyektlar to‘g‘risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish obyektlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish (foto va videomateriallar ko‘rinishida) va ularni qurilish sohasidagi nazorat

bo‘yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi “Ogoh fuqaro” tizimini yaratish;

6) internet-resurslarga keng polosali kirishni to‘liq qamrab olish, zamonaviy IT-texnologiyalar bilan ta’minlash, zamonaviy server va kompyuter asbob-uskunalari va nusxa ko‘chiruvchi texnika bilan jihozlash yo‘li bilan Qurilish vazirligining hududiy bo‘linmalari va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

7) shaharsozlik faoliyati subyektlari va aholida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi elektron platformalari va Geoportaldan foydalanish ko‘nikmalari va bilimlarini rivojlantirish maqsadida ularni ushbu dasturiy mahsulotlardan foydalanishga o‘qitish;

8) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi elektron platformalari va Geoportal funksionalining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlash;

9) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining kichik tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalari funksionalini bosqichma-bosqich kengaytirish, shuningdek, davlat shaharsozlik kadastri obyektlarining mavjud sonini aniqlashtirib borgan holda Geoportalni tizimli modernizatsiya qilish va yangilash, zarur bo‘lganda qo‘shimcha kichik tizimlar va elektron ma’lumotlar bazalarini kiritish;

10) qurilishi tugallangan obyektlarning ijro tasvirlarini ma’lumotlar bazasiga kiritgan holda muhandislik-texnik qidiruvlar elektron geofondini yaratish va yuritish;

11) qurilish sohasida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishni davom ettirish;

12) joriy etilayotgan axborot tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash.

### § 5. Shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish

Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish “aqlli” shahar qurilishining asosiy poydevori hisoblanadi. Ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishda zamonaviy va innovatsion uslublarni qo‘llashning samaradorligi xalqaro e’tirof darajasini, yangi iste’dodlar paydo bo‘lishining natijadorligini oshirish, mutaxassislarning arxitektura va qurilishga oid dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, raqobatbardosh ilmiy ishlanmalarga mualliflik huquqlarini faollashtirish imkonini beradi.

Bayon etilganlar munosabati bilan Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

1) mintaqalarda joylashgan arxitektura-qurilish yoʻnalishidagi kasb-hunar ta'limi muassasalarining "Elektron ta'lim" milliy tarmogʻiga ulanishini ta'minlash;

2) arxitektura-qurilish kollejlari va texnikumlarida kouchinglar va turli maxsus koʻnikmalarni oʻzlashtirish boʻyicha ishlarni olib borishni amaliyotga kiritish;

3) iste'dodli yoshlarni arxitektura va qurilish sohasidagi ilmiy va ijodiy faoliyatga, shu jumladan yosh olimlar uchun kasbiy tanlovlarni qoʻllab-quvvatlash yoʻli bilan jalb etishni ragʻbatlantirish tizimini yaratish;

4) moslashtirish markazlarini rivojlantirish hamda texnologiyalar va innovatsiyalarni transfer qilish, qurilish tarmogʻi ishtirokchilarining bilim, koʻnikma va texnologik yechimlarga boʻlgan ehtiyojlarini muntazam ravishda monitoring qilish orqali ilm-fan va real sektorning oʻzaro samarali aloqasi mexanizmlarini shakllantirish;

5) arxitektura va qurilish sohasidagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarini ularning filiallarini ochish, tajriba almashish, xorijiy arxitektorlar va muhandislarni mahalliy ta'lim muassasalarida oʻqitishga jalb qilish, tarmoq uchun talab eng yuqori boʻlgan mutaxassisliklar boʻyicha bitiruvchilarga ikki tomonlama diplom bergan holda qoʻshma ta'lim dasturlarini yaratish yoʻli bilan Oʻzbekiston Respublikasida ta'lim faoliyatini amalga oshirishga jalb qilish;

6) mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan malakali kadrlarni tayyorlash uchun oʻqitishning zamonaviy va innovatsion uslublarini qoʻllash, arxitektura-qurilish kollejlari va texnikumlarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qamrab olishni kengaytirish;

7) ishlab chiqarish ta'limining malakali ustalari va muhandis-texnik xodimlarni jalb qilish, ta'lim oluvchilarning tanlangan kasbga muvofiq mutaxassisligini identifikatsiya qiluvchi maxsus kasbga muvofiqlik sertifikatlarini berish asosida qisqa muddatli kurslar doirasida mutaxassislarni oʻqitish boʻyicha xizmatlarni kengaytirish, shuningdek, Yagona milliy mehnat tizimiga maxsus sertifikatlarni aniqlab olish va monitoring qilish tizimini joriy qilish;

8) eksperimental loyihalashtirish va qurilish tizimini tiklash, ilmiy, ilmiy-texnologik va innovatsion faoliyat, shu jumladan tadqiqot, muhandislik-ishlab chiqarish konsorsiumlari, rivojlanishning klaster turlarini tashkil etishning tarmoq shakllarini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash;

9) arxitektura-qurilish kollejlari va texnikumlari oʻqituvchilarining malakasini muntazam ravishda oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllagan holda eng tajribali xodimlar orasidan oʻqituvchilarni tanlab olishda kompleks yondashuv va samaradorlikni ta’minlash;

10) qurilish sohasidagi rivojlanish tendensiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan hamda xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda yangi avlod tarmoq darsliklari va oʻquv qoʻllanmalari turkumini tayyorlash, shuningdek, arxitektura va qurilish sohasidagi kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun ilgʻor xorijiy adabiyotlarning oʻzbek tiliga tarjima qilinishini ta’minlash;

11) 2025-yilga borib arxitektura va qurilish sohasidagi oliy ta’lim muassasalaridan birining xalqaro tan olingan tashkilotlar reytinglaridagi Osiyo mamlakatlarining eng yaxshi oliy ta’lim muassasalari roʻyxatiga (TOP-1000) kirishi boʻyicha zarur choralarni koʻrish, shuningdek, uning milliy reytingdagi pozitsiyalarini oshirishni ta’minlash;

12) arxitektura va qurilish sohasida olib borilayotgan fundamental, qidiruv hamda amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar samaradorligini oshirish;

13) oʻzaro manfaatli xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, mahalliy olimlar va tashkilotlarning xalqaro ilmiy uyushmalar va boshqa professional birlashmalarda ishtirok etishi;

14) arxitektura va qurilish sohasidagi ilmiy jurnallar reytingini oshirish choralarini koʻrish;

15) qonun hujjatlaridagi yangiliklarni hisobga olgan holda Qurilish vazirligi tizimi xodimlari uchun oʻquv dasturlarini tizimli asosda yaratish va yangilash;

16) qurilish organlari va muassasalari xodimlari uchun xalqaro ekspertlar ishtirokida xorijiy amaliyot, seminarlar, mahorat darslari va oʻquv kurslarini tashkil etish boʻyicha ishlarni kuchaytirish. Ushbu yoʻnalishda qoʻshma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari va xorijiy donorlar bilan hamkorlikni faollashtirish;

17) arxitektura va qurilish organlari va muassasalari tizimida HR-menejment tizimini joriy qilish, shu asosda kadrlarni qoʻllab-quvvatlash, boshqarish va nazorat qilishning samarali tizimini ishlab chiqqan holda Qurilish vazirligining ijobiy imijini yaratish;

18) malakali kadrlarni qurilish organlari va muassasalari tizimiga jalb qilishga qaratilgan rekrutmentning yangi uslublarini (onlayn-rekrutment, faol xedxanting) qo‘llash;

19) xodimlarni baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish:

Qurilish vazirligi tizimida KPI tizimini joriy etish;

xodimlarni rag‘batlantirishning yangi uslublarini (xodimlar faoliyati samaradorligining reyting tizimi, idoraviy rag‘batlantirish dasturlari va boshqalar) joriy etish;

20) Qurilish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens tizimini samarali joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

21) tarmoqni rivojlantirish istiqbollarining modellarini qurish imkonini beruvchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan qarorlarni qabul qilish maqsadida asosan avtomatik rejimda faoliyatning ishonchli asosiy parametrlariga muvofiq to‘planadigan, asosiy vazifalari “shaharsozlik faoliyatining ishonchli statistikasi”ni qurish hisoblangan axborot-tahliliy markazini davlat-xususiy sheriklik tamoyillarida ochish orqali tahlil va statistik hisobot tizimini isloh qilish.

## 4-bob. Strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlarini monitoring qilishni ta’minlash

Qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlarga o‘z vaqtida erishish maqsadida Strategiyaning quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlarini ta’minlash zarur:

2025-yil oxiriga borib “Biznes yuritish” xalqaro indeksida (Doing Business Index) “qurilishga ruxsatnomalar olish” (Dealing with Construction Permits) yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining pozitsiyasini joriy 61,7 balldan 78,2 ballgacha yaxshilash;

O‘zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda 2025-yilga borib milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini kamida 50 foiz darajasida xalqaro normativ va standartlar bilan uyg‘unlashtirishga erishish;

2025-yilga borib shaharlarning barchasini va shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olishga erishish;

2025-yilga borib “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida qo‘shimcha to‘rtta elektron platforma yaratilishini, shuningdek, ularning idoralararo axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash;

2025-yilga borib loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning “hajm” uslubini joriy etish ulushini respublikadagi qurilish obyektlari umumiy sonining 50 foizigacha yetkazish;

2025-yilga borib arxitektura va qurilish sohasidagi oliy ta’lim muassasalaridan birining xalqaro tan olingan tashkilotlar reytinglaridagi Osiyo mamlakatlarining eng yaxshi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga (TOP-1000) kirishi.

Qurilish vazirligi o‘z vakolatlari doirasida Strategiyani amalga oshirishni tizimli monitoring qiladi, umumiy muvofiqlashtiradi, qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor ravishda ko‘rib chiqadi va hal etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli Farmoniga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha**

“YO‘L XARITASI”

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddatlari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **Hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish hamda ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta’minlash** | | | | |
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh sxemasini ishlab chiqish. | 1. Bosh sxemani ishlab chiqish uchun yetakchi mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislar�i jalb qilish. | 2023-yil oktyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>*(I. Norqulov),*<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br><br>*(B. Zakirov),* “O‘zshaharsozlik-LITI” bosh loyiha instituti,<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Loyihani kelgusi yillar Investitsiya dasturiga kiritish bo‘yicha takliflar kiritish. | 2023-yil oktyabr | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Bosh sxema konsepsiyasini tayyorlash. | 2024-yil dekabr | |
| | | 4. Bosh sxema loyihasini ishlab chiqish, vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2025 — 2027-yillar | |
| 2. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish sxemalari hamda aglomeratsiya hududlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish. | 1. Hududiy sxemalarni va aglomeratsiya hududlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun yetakchi mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish. | 2023-yil oktyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(I. Norqulov),* Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi *(B. Zakirov),* “O‘zshaharsozlik-LITI” bosh loyiha instituti, “ToshkentboshplanLITI” bosh loyiha instituti, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Loyihalarni kelgusi yillar Investitsiya dasturiga kiritish bo‘yicha takliflar kiritish. | 2023-yil oktyabr | |
| | | 3. Hududiy sxemalarning konsepsiyasini tayyorlash. | 2024-yil dekabr | |
| | | 4. Hududiy sxemalar va aglomeratsiya hududlarini rivojlantirish strategiyalari loyihalarini ishlab chiqish, vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2025 — 2027-yillar | |
| 3. | Hududiy “Dizayn-kod”ni joriy etish. | 1. “Dizayn-kod”dan foydalanish | 2021-yil may | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish.<br>2. Respublika hududlari shaharsozligining mahalliy xususiyatlarini o‘rganish.<br>3. “Dizayn-kod”ni qo‘llash bo‘yicha tavsiyaviy normativ hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish. | <br><br>2021-yil noyabr<br><br>2022-yil iyul | |
| 4. | Shahar muhitini matematik (**3D**) modellashtirish bo‘yicha standartlar majmuini joriy etgan holda “Aqlli shahar” texnologiyalari elementlaridan foydalanish. | 1. Shahar muhitini matematik (**3D**) modellashtirish bo‘yicha standartlar majmuini ishlab chiqish.<br>2. Shahar muhitini matematik (**3D**) modellashtirish bo‘yicha standartlarni qabul qilish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil iyun<br><br>2021-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 5. | Aholi punktlarining bosh rejalariga ommaviy hujjat maqomini berish. | 1. “Shaffof qurilish” MAT doirasida tegishli axborot portalini yaratish.<br>2. Portalni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish. | 2021-yil avgust<br><br>2021-yil dekabr | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3.Aholi punktlarining bosh rejalari axborot portalida joylashtirilganligi to‘g‘risidagi axborotnikeng yoritish. | 2022-yil mart | |
| | | 4. Aholi punktlarining bosh rejalarini jamoatchilik ishtirokida tizimli ravishda muhokama qilish. | Doimiy ravishda | |
| 6. | 2025-yilga borib shaharlarni bosh rejalar bilan to‘liq, shahar qishloqlarini 25 foizgacha qamrab olish. | 1. Respublika shaharlarining bosh rejalari loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha 2018 — 2022-yillarga mo‘ljallangan dastur doirasida shaharlar va shahar qishloqlarining 18 ta bosh rejasi ishlab chiqilishini ta’minlash. | 2021-2022-yillar | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish va qurishga doir shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha 2023 — 2025-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori loyihasini ishlab chiqish, kelishish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | 2022-yil avgust | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va qo‘llashning Yagona standartlarini yaratish. | 1. Qurilish hamda iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirliklari, loyiha tashkilotlari xodimlari orasidan ishchi guruhi tuzish. | 2021-yil mart | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va qo‘llashning Yagona standartlarini ishlab chiqish. | 2021-yil dekabr | |
| | | 3. Yagona standartlarni tasdiqlash bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil may | |
| 8. | Shaharni rejalashtirish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi shaharni rejalashtirish sohasidagi xorijiy tajribal�rni o‘rganish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish:<br><br>hududlarning bosh rejalarini ishlab chiqishga jalb qilingan Qurilish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, shuningdek, loyiha tashkilotlari mutaxassislaridan iborat tarkibda | 2021-yil fevral | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ishchi guruhini tashkil etish;<br><br>xizmat safarlari jadvalini tuzish orqali chet el tajribasini o‘rganishni tashkillashtirish;<br><br>mutaxassislarning malakasini oshirish tadbirlarini (ma’ruzalar, seminarlar, treninglar va hokazo) o‘tkazish uchun shaharlarni rejalashtirish sohasidagi yetakchi xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;<br><br>har bir xizmat safari va (yoki) malaka oshirish tadbirlarining yakuni bo‘yicha shaharni rejalashtirish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash hamda Qurilish vazirligi hay’atida ko‘rib chiqish va muhokama qilish uchun kiritish;<br><br>Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasiga takliflarni kiritish. | | | |
| **II. Shaharsozlik faoliyati sifati va xavfsizligini oshirish** | | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 9. | Texnik jihatdan tartibga solishga doir milliy hujjatlarni geologiya, tabiiy-iqlim, seysmologiya va boshqa xususiyatlarni inobatga olgan xolda xorijiy normativ hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish. | 1. Xorijiy kompaniyani jalb qilish. | 2021-yil yanvar | Shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlarni isloh qilish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (A. Ramatov), Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Texnik topshiriqlarni kelishish, shartnomalar tuzish. | 2021-yil fevral | |
| | | 3. Jalb qilingan xorijiy kompaniya bilan birgalikda texnik tartibga solish sohasidagi milliy hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish hamda xalqaro normativ hujjatlar bilan solishtirish. | 2024-yil oktyabr (doimiy asosda) | |
| | | 4. Xalqaro me’yorlarni texnik jihatdan tartibga solishga doir milliy normativlarga implementatsiya qilish bo‘yicha takliflarni tayyorlash. | 2024-yil oktyabr | |
| | | 5. Texnik tartibga solish sohasidagi yangilangan milliy hujjatlarni tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. | 2024-yil dekabr | |
| | | 6. Yangilangan normativ bazani yaratish. | 2025-yil davomida | |
| 10. | Bino va inshootlarning xavfsizligi va energiya tejamkorligi, obyektning hayotiy davri mobaynida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan texnik jihatidan tartibga solishga doir | 1. Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda bino va inshootlarning xavfsizligi va energiya tejamkorligi, obyektning hayotiy davri mobaynida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha | 2021-yil may | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* Energetika vazirligi *(A. Sultonov)* Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xadjibayev)* Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi *(B. Gulyamov)* Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi *(A. Maksudov)* “O‘zstandart” Agentligi *(D. Sattarov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | milliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish | mavjud amaliyotni tahlil qilish; | | |
| | | 2. Bino va inshootlarning, shu jumladan tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda holatlardagi xavfsizligiga (yong‘in, mexanika, ekologiya va boshqa) doir talablarni o‘z ichiga oluvchi bino va inshootlar xavfsizligi va energiya tejamkorligi bo‘yicha normativ huquqiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil noyabr | |
| 11. | Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalari, alohida konstruktiv elementlarning texnik holatini “buzmaydigan” usul bilan monitorin� qilish tizimlarini joriy etish. | 1. Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalari, alohida konstruktiv elementlarning texnik holatini “buzmaydigan” usul bilan monitoring qilish tizimlarini qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish. | 2021-yil may | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov)* |
| | | 2. Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalari texnik holatini monitoring qilish tizimlarini joriy etish bo‘yicha texnik normativlar va standartlarni ishlab chiqish. | 2022-yil yanvar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalari texnik holatini monitoring qilish tizimlaridan foydalangan holda loyiha yechimlarini qo‘llash masalalarini loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish amaliyotiga joriy etish. | Doimiy ravishda | |
| 12. | Shaharsozlik faoliyatini texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlar, shu jumladan xorijiy normativ hujjatlar, ilmiy-texnik kutubxonasini tashkil qilish. | 1. Ilmiy-texnik kutubxonani joylashtirish masalasini ishlab chiqish. | 2021-yil iyul | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Shaharsozlik faoliyatini texnik tartibga solish sohasidagi milliy va xorijiy ilmiy-texnik adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish. | 2022-yil aprel | |
| | | 3. Ilmiy-texnik adabiyotlarni sotib olishni moliyalashtirish masalasini ishlab chiqish. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 4. Milliy va xorijiy ilmiy-texnik adabiyotlar kutubxonasi fondini shakllantirish. | 2023-2024-yillar | |
| 13. | Loyiha-qidiruv yoki qurilish faoliyatiga sug‘urta qilish tamoyillarini joriy etish. | 1. Loyiha-qidiruv va qurilish faoliyatida sug‘urta qilishni qo‘llashning eng yaxshi xalqaro tajribasini o‘rganish. | 2021-yil aprel | Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| | | 2. Tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash hamda | 2021-yil may | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | aniq takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | | |
| 14. | Davlat xizmatlarini hamda ruxsat berish tartib-taomillari, loyiha hujjatlar ekspertizasi, shuningdek, qurilish sohasidagi nazorat bilan shug‘ullanuvchi vakolatli organlar va tashkilotlarning xodimlarini davriy attestatsiyadan o‘tkazish tizimini joriy etish. | 1. Qurilish obyektlarining xavflilik toifalariga qarab attestatsiyadan o‘tkazishga nisbatan tabaqalashtirilgan talablarni ishlab chiqish. | 2021-yil oktyabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Tizimli ravishda, ikki yilda kamida bir marta attestatsiyadan o‘tkazishni amaliyotga joriy etish. | 2022-yildan boshlab | |
| | | 3. Vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlarining yagona reyestrini tuzish va yuritish. | birinchi attestatsiyadan so‘ng, doimiy ravishda | |
| 15. | Yetakchi xalqaro arxitektorlar va loyihachilarni jalb qilgan xolda treninglar, seminarlar, mahorat darslari, o‘quv kurslarini tashkillashtirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarni, jumladan O‘zbekiston arxitektorlar kengashi va O‘zbekiston muhandis-konsultantlar uyushmasining rolini oshirish. | Treninglar, seminarlar, mahorat darslari, o‘quv kurslarini tashkil etish uchun yetakchi xalqaro arxitektorlar va loyihachilarni jalb qilish bo‘yicha 2021 — 2023-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2021-yil may | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* O‘zbekiston Arxitektorlar uyushmasi *(A. Toxtayev)*, O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasi *(A. Xalmatov)* |
| 16. | Loyiha va pudrat ishiga “ustoz — | 1. Ustozlar tomonidan yosh arxitektorlar, | 2022-yil yanvar | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, O‘zbekiston Arxitektorlar uyushmasi *(A. Toxtayev)*, O‘zbekiston |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | shogird" tamoyillarini tatbiq qilish. | loyihachilar va quruvchilarning ishlariga taqriz berish tartibini joriy etishni nazarda tutuvchi ustozlik tamoyillaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va tasdiqlash. | | Muhandislar-konsultantlar uyushmasi *(A. Xalmatov)* |
| | | 2. Ustozlikning mohiyatini tushuntirish uchun loyiha va qurilish pudrat tashkilotlari ishtirokida tematik seminarlar o'tkazish. | 2022-yil I yarim yillik | |
| 17. | Mahalliy dasturchilar tomonidan loyihalashtirish va qurilish ishlab chiqarishini boshqarish sohasida raqobatbardosh dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha tanlovlar o'tkazish. | 1. Yetakchi IT-mutaxassislar va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda tanlovlarni o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tuzish. | 2021-yil mart | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov),* loyiha tashkilotlari, dasturiy mahsulotlar ishlab chiquvchilari |
| | | 2. Mahalliy dasturchilar tomonidan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha tanlovlar o'tkazish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2021-yil noyabr | |
| 18. | Xalqaro mehnat tashkilotining Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi 167-son Konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi. | 1. Xalqaro mehnat tashkilotining Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi 167-son Konvensiyasiga (Jeneva, 1988-yil 20-iyun) O'zbekiston Respublikasining | 2021-yil iyun | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov),* Tashqi ishlar vazirligi (*A. Kamilov*) Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Sog'liqni saqlash vazirligi *(A. Xadjibayev),* Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi *(B. Gulyamov),* Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi *(K. Rafikov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | qo‘shilish�ning maqsadga muvofiqligini o‘rganish va uning natijalariga ko‘ra asosli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish;<br>2. Xalqaro mehnat tashkilotining Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to‘g‘risidagi 167-son Konvensiyasini ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | <br>2021-yil oktyabr | |
| 19. | Xalqaro ijtimoiy ta’minot assotsiatsiyasining (ISSA) konsepsiyasini joriy etishga asoslangan “Qurilish maydonchalarida jarohatlanishga barham berish” dasturini qabul qilish. | 1. “Qurilish maydonchalarida jarohatlanishga barham berish” dasturini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhi tuzish.<br>2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi “Qurilish maydonchalarida jarohatlanishga barham berish” dasturini qabul qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash: | 2021-yil may<br>2022-yil mart | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi *(B. Gulyamov)*, Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi *(U. Egamberdiyev)*, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi *(K. Rafikov)*, Savdo-sanoat palatasi *(A. Ikramov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qurilish tarmog‘ining barcha tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish, shu jumladan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassis lavozimi kiritish;<br><br>sohaga malakali kadrlar, muhandislar va texnik mutaxassislarni jalb qilish, ish joylarida xavfsizlik va gigiyena masalalari bo‘yicha xodimlar, ishlab chiqarish xodimlari va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish va bilimlarini tekshirishni tashkil etish;<br><br>qurilish maydonchalarida potensial tahdidlarni aniqlash, kasbiy xavf-xatarlarni baholash, nazorat qilish va boshqarishni o‘z ichiga oluvchi Mehnat xavfsizligi standartlari tizimiga muvofiq mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi, ISO : 45001 | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | xalqaro standarti qurilish tarmog‘i obyektlarida joriy etilishini ta’minlash. | | |
| 20. | Ish joylarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikka rioya qilish masalalarida xodimlarning ishtirok etishi orqali kadrlarga investitsiya qilish, ularni rag‘batlantirish tizimini joriy etish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish:<br><br>ish joylarida xavfsizlik va gigiyena talablariga rioya qilish masalalarida xodimlarning ishtirok etishi orqali motivatsiya tadbirlarini o‘tkazish;<br><br>Xalqaro mehnatni muhofaza qilish kuni — 28-aprelda faxriy yorliqlar, ko‘krak nishonlari, mukofotlar, suvenirlar, sanatoriylarga imtiyozli yo‘llanmalar topshirgan holda “Mehnat muhofazasida faol, ilg‘or va a’lo rahbar”, “Mehnat muhofazasida faol, ilg‘or va a’lo mutaxassis” nominatsiyalari bo‘yicha tanlovlar o‘tkazishni amaliyotga kiritish. | 2021-yil avgust | Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi *(K. Rafikov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov),* Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi *(B. Gulyamov),* Savdo-sanoat palatasi *(A. Ikramov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **III. Shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, qurilish tarmog‘i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish** | | | | |
| 21. | Tadbirkorlik faoliyati obyektlarini qurishga yer | 1. Elektron auksionlarni o‘tkazish uchun hujjatlarni | 2021-yil mart | Kadastr agentligi *(X. Turaxujayev),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I.* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | uchastkalarini sotish uchun ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish va hujjatlarni tayyorlash muddatlarini qisqartirish. | tayyorlash va kelishish, shu jumladan hujjatlarni kelishish muddatlarini tahlil qilish. | | *Norqulov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Ayrim ruxsat berish tartib-taomillari va hujjatlarni kelishish muddatlarini maqbullashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | 2021-yil noyabr | |
| | | 3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2022-yil fevral | |
| 22. | “Biznes yuritish” xalqaro indeksining (Doing Business Index) qurilishga ruxsatnomalar olish (Dealing with Construction Permits) qismida O‘zbekiston Respublikasining pozitsiyasini yaxshilash. | 1. Qurilishga ruxsatnomalar olish jarayonini (muddatlar, tartib-taomillar soni, qiymat, sifat) takomillashtirish qismida xalqaro tajribani o‘rganish. | 2021-yil aprel | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Ilg‘or xorijiy tajribani milliy tartib-taomillar bilan solishtirish. | 2021-yil iyul | |
| | | 3. Takliflar va chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish. | 2021-yil oktyabr | |
| 23. | Loyiha va pudrat ishlari (xizmatlari)ning xaridi jarayonlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish. | Quyidagilarni nazarda tutgan holda Vazirlar Mahkamasining qurilish sohasidagi xarid tartib tamoyillarini takomillashtirish bo‘yicha qarori | 2021-yil yanvar | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi *(N. Sharipov)*, Davlat soliq qo‘mitasi *(Sh. Kudbiyev)*, Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*, “O‘zstandart” agentligi *(D. Sattarov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | loyihasini tasdiqlash:<br><br>elektron tender platformasini joriy etish;<br><br>xarid tartib-tamoyillariga sarflanadigan vaqtni ikki baravar qisqartirish;<br><br>elektron reytingni joriy etish hisobiga tanlov (tender) hujjatlarining umumiy va texnik qismlarini baholash tartibini bekor qilish;<br><br>namunaviy xarid qilish hujjatlarini tasdiqlash. | | |
| 24. | Shaharsozlik subyektlari faoliyatidagi litsenziyalash va ruxsatnoma tartib-tamoyillarini tubdan takomillashtirish. | 1. Xorijga xizmat safarlarini tashkillashtirish yo‘li bilan loyiha tashkilotlarni litsenziyalash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish; | 2021-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Adliya vazirligi *(R. Davletov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish:<br><br>a) xavflilikning I toifasidagi obyektlar uchun arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab | 2022-yil may | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | chiqish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash tartibini xabarnoma yuborish tartibiga o‘tkazish;<br><br>b) xavflilikning II, III, IV toifalaridagi obyektlar uchun arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha faoliyatni, loyihalashtirish va qurilish sohasidagi mutaxassislarni majburiy sertifikatlashga asoslangan holda litsenziyalash tartibini joriy qilish va bunda quyidagilarni nazarda tutish:<br><br>bilim, tajriba va ish staji, loyihalashtirishning zamonaviy uslublari va texnologiyalarini qo‘llash va boshqa mezonlarni baholash;<br><br>loyihalashtirish va qurilish sohasidagi mutaxassislarni qayta attestatsiyadan o‘tkazish (5 yilda kamida bir marta) asosida ularni davriy sertifikatlash; | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | v) loyihalashtirish va qurilish sohasidagi sertifikatlangan mutaxassislarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish, maxsus identifikatsiya kartalari va QR-koddan foydalangan holda ularning kasbiy faoliyatini kuzatib borish. | | |
| | | Qurilish pudrat tashkilotlarini qurilish yo‘nalishlari va toifalari bo‘yicha, shuningdek, qurilish pudrat tashkilotlari elektron reytingiga bog‘lagan holda guruhlashni hisobga olib, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda faoliyatini litsenziyalashdan tashqari usullar bilan tartibga solish mumkin bo‘lmagan, qurilish-montaj ishlarining alohida turlari bilan shug‘ullanuvchi qurilish pudrat tashkilotlarini litsenziyalash | | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tartibini takomillashtirish: | | |
| | | a) qurilish pudrat tashkilotlarini litsenziyalash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish; | 2021-yil yanvar | |
| | | b) elektron reyting doirasida qurilish pudrat tashkilotlarining faoliyatini tahlil qilish hamda qurilish-montaj ishlarining turlari va/yoki qurilish obyektlarining xavflilik toifalari kesimida litsenziyalashga muayyan mezonlarni qo'llash bo'yicha takliflar tayyorlash; | 2021-yil mart | |
| | | v) qurilish pudrat tashkilotlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil aprel | |
| 25. | Kafolat muddati tugagach kafolat summasini to'lash miqdorini qayta ko'rib chiqish. | 1. Kafolat muddati tugagach obyektlarning xavflilik toifasiga qarab kafolat summasini to'lash miqdorini aniqlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, uni to'lash muddatlarini qayta ko'rib chiqish. | 2021-yil sentyabr | Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Markaziy bank *(M. Nurmuratov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Takliflar ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma'lumotnoma kiritish. | 2021-yil noyabr | |
| | | 3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2022-yil mart | |
| 26. | Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning "hajm" uslubini bosqichma-bosqich joriy etish va uning asosida shaharsozlik faoliyati subyektlari (buyurtmachi, loyihachi va pudratchi) tomonidan qurilish-montaj ishlarining amalga oshirilishi. | 1. Xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribasini o'rganish, zarur bo'lganda, qurilishda xarid qilish uchun boshlang'ich qiymatni aniqlashni, o'zaro hisob-kitoblarning narx shakllanishini, hisobotlarni shakllantirish va moliyalashtirishni tahlil qilish uchun xalqaro konsalting kompaniyalari va ekspertlarni jalb qilish. | 2021-yil sentyabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi *(L. Qudratov)*, Transport vazirligi (*I. Maxkamov)*, Tashqi ishlar vazirligi *(A. Kamilov)* |
| | | 2. O'rganish asosida "resurs" va "hajm" uslublarini solishtirish. | 2022-yil yanvar | |
| | | 3. "Hajm" uslubini joriy qilishni davom ettirish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil noyabr | |
| | | 4. Markazlashtirilmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar doirasida "hajm" | 2022-yil mobaynida | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | uslubini tajriba-sinov tarzida qo‘llash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish. | | |
| | | 5. Investitsiya dasturining kamida yuzta loyihasi bo‘yicha “hajm” uslubini kiritish. | 2023-2024-yillar | |
| | | 6. Qurilish obyektlarining umumiy sonida “hajm” uslubi ulushini 50 foizgacha yetkazish. | 2025-yil dekabr | |
| 27. | “Qurilish materiallari milliy klassifikatori” elektron platformasini joriy etish. | 1. Elektron platformani joriy etish bo‘yicha ishchi guruh tuzish. | 2021-yil fevral | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov),* Transport vazirligi *(I. Maxkamov),* Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov),* “O‘zstandart” agentligi *(D. Sattarov),* “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi *(A. Baxodirov)* |
| | | 2. Ishchi guruh tomonidan Texnik topshiriq hamda vakolatli organlarning o‘zaro aloqa qilishi mexanizmini ishlab chiqish. | 2021-yil iyul | |
| | | 3. Qurilish materiallariga mavjud standartlarni va statistik hisobotlar shakllarini xatlovdan o‘tkazish, yaratilayotgan klassifikatorning tuzilishi bo‘yicha takliflar tayyorlash. | 2021-yil dekabr | |
| | | 4. Qurilish materiallari milliy klassifikatorini, shu jumladan har biriga individual kodlarni bergan holda qurilish materiallarining batafsil texnik | 2022-yil iyul | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tavsiflarini shakllantirish. | | |
| | | 5. Shu jumladan ishlab chiqaruvchilar dislokatsiyasi va logistika haqidagi axborotni o‘z ichiga olgan elektron platformani tajriba-sinov tarzida ishga tushirish. | 2023-yil fevral | |
| 28. | Qurilish qiymatini aniqlashning bozor tamoyillari hamda buyurtmachi, loyihachi va pudratchi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga asoslangan muqobil mexanizmlarini parallel ravishda ishlab chiqqan holda loyihaoldi va loyiha hujjatlarining smeta qismini davlat ekspertizasidan o‘tkazishga doir talablarni bekor qilish. | 1. Bozor tamoyillari hamda shaharsozlik faoliyati sohasidagi buyurtmachi va ishlar (xizmatlar) ijrochisi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga asoslangan qurilish qiymatini aniqlash bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil fevral | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)* |
| | | 2. Qurilish vazirligi tomonidan loyihaoldi va loyiha hujjatlari smeta qismini davlat ekspertizasidan o‘tkazishga doir majburiy talablarni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil oktyabr | |
| 29. | Davlat va unga tenglashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtiriladi | 1. Eksperiment tariqasida Toshkent shahrida buyurtmachi funksiyalarini amalga oshiruvchi xususiy | 2020-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Toshkent shahar hokimligi *(J. Artikxodjayev)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | gan obyektlar bo‘yicha qurilish sohasidagi texnik buyurtmachilar tizimini xususiy tadbirkorlik subyektlarini texnik buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirishga jalb qilish hisobiga tubdan isloh qilish. | tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatini tasdiqlash. | | Maktabgacha ta’lim vazirligi*(A. Shin)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Toshkent shahrida qurilish-montaj ishlari tugallanguncha va tanlab olingan obyektlar foydalanishga topshirilguncha 10 ta loyihani amalga oshirishni boshqarish, shu jumladan “autsorsing” asosida injiniring xizmatlarini jalb qilish (mualliflik va texnik nazorat, loyihani boshqarish) bo‘yicha eksperiment o‘tkazish. | 2022-yil dekabr | |
| 30. | Davlat loyiha-qidiruv tashkilotlarini transformatsiya qilish | 1. Davlat loyiha-qidiruv tashkilotlarini moliyaviy va texnologik auditdan o‘tkazish uchun xorijiy ekspertlarni jalb qilish. | 2021-yil yanvar | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(S. Bekenov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi *(L. Qudratov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Davlat soliq qo‘mitasi *(Sh. Kudbiyev)* |
| | | 2. Har bir davlat loyiha instituti bo‘yicha rivojlantirishning tijorat konsepsiyalarini, shu jumladan texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish. | 2021-yil aprel | |
| | | 3. Investitsiyalar jalb qilish va (yoki) qurilish tashkilotlarining davlat loyiha | 2022-yil yanvar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tashkilotlari bilan kooperatsiyasini ta’minlash maqsadida investorlar qidirish hamda investorlar va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan qurilish kompaniyalari bilan muzokaralar o‘tkazish. | | |
| | | 4. Muzokaralar yakunlaridan kelib chiqib davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini tanlov asosida ishonchli boshqaruvga berish, aksiyalarni qo‘shimcha emissiya qilgan holda (ustav fondini ko‘paytirgan holda) investitsiyalarni jalb qilish to‘g‘risida yoki boshqa kelishuvlarga ko‘ra bo‘yicha bitimlar tuzish. | Doimiy ravishda, bitimlar tuzish yakunlariga ko‘ra | |
| | | 5. Quyidagilar orqali loyiha-qidiruv tashkilotlari faoliyatida davlat ishtiroki ulushini qisqartirish:<br><br>loyiha-qidiruv tashkilotlari ustav kapitalidagi davlat aksiyalar paketini sotish;<br><br>xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va loyiha-qidiruv | 2021-2022-yillar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tashkilotlari aksiyalarini (ustav fondini oshirgan holda) qo‘shimcha emissiya qilish. | | |
| 31. | Ko‘chmas mulk obyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng ipoteka obyektini rasmiylashtirish sharti bilan tijorat banklari tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish davrida beriladigan, qurilishning ulushli ishtirokchilari ipoteka krediti mablag‘lari hisobiga qurilish pudrat tashkilotlarini moliyalashtirishni tezlashtirish imkoniyatini ta’minlash. | 1. Tijorat banklari tomonidan ulushli ishtirok etish asosida ko‘p kvartirali uylarning qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish davrida ipoteka kreditlari bosqichma-bosqich berilishini ta’minlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.<br>2. Ipoteka krediti va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish, kelishish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | 2021-yil fevral<br>2021-yil avgust | Markaziy bank *(M. Nurmuratov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| 32. | Qurilish klasterlarini joriy etish. | 1. Xalqaro tajribani o‘rganish, Ispaniya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarning qurilish klasterlarini bo�ib ko‘rish.<br>2. Muvofiqlashtiruvc | 2021-yil avgust<br>2021-yil oktyabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi *(L. Qudratov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* Tashqi ishlar vazirligi *(A. Kamilov),* “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi *(A. Baxodirov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | hi organni belgilash. | | viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 3. Xorijiy tajribani o‘rganish asosida respublika hududlarining ehtiyojiga qarab klaster hamkorligi (ishlab chiqarish-qurilish, investitsiya-qurilish va loyiha-qurilish klasterlari) uslubiyatini ishlab chiqish. | 2022-yil fevral | |
| | | 4. Klaster usulida tajriba almashish hamda qurilish-montaj jarayonlarining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ustalar va tor ixtisoslik mutaxassislarini o‘qitish tizimini kiritish. | 2022-yil avgust | |
| | | 5. Ikkinchi bosqichda klaster hamkorlikni qurilish, loyihalashtirish va birgalikda investitsiyalash yo‘nalishlari bo‘yicha kengaytirish. | 2023-yildan boshlab, doimiy ravishda | |
| 33. | Muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infrastrukturasining yetarli quvvati bilan ta’minlangan ko‘p kvartirali uylarni qurish uchun yer uchastkalarini auksionga qo‘yish. | 1. Xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilib, quyidagilarni hisobga olgan holda respublika shaharlaridagi seliteb hududlarni rivojlantirishning tijorat konsepsiyalarini ishlab chiqish: | 2021-yil noyabr | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Kadastr agentligi *(X. Turaxujayev)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | istiqbolda urbanizatsiyalashuv jarayonlari;<br><br>istiqbolda aholi tomonidan uy-joy mulkining sotib olinishiga prognoz ehtiyojni o‘rganish va tahlil qilish;<br><br>yetarli quvvatga ega bo‘lgan muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infrastrukturasining mavjudligi. | | |
| | | 2. Respublika shaharlaridagi seliteb hududlarni rivojlantirish konsepsiyalarining qoidalari va taqdimotlarini mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2022-yil mobaynida | |
| | | 3. Investorlarni tanlashning aniq mezonlarini (“zamonaviy menejment” tizimining joriy etilganlik darajasi, ularning faoliyatini boshqarish tizimi, rejalashtirish samaradorligini baholash), tegishli investitsiya shartlarini bajarishga doir talablarni belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | |
| | | 4. Ko‘p kvartirali uylarni qurish uchun yer uchastkalarini | 2024-2025-yillar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | auksionga qo'yish reja-jadvalini ishlab chiqish va sotish. | | |
| 34. | Qurilishda an'anaviy loy g'isht o'rnini bosuvchi energiya tejamkor qurilish materiallarining yangi turlarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022-2023-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va tasdiqlash:<br><br>mahalliy xomashyo asosida an'anaviy loy g'isht o'rnini bosuvchi qurilish materiallarining yangi turlarini joriy etish masalasini ishlab chiqish;<br><br>ishlab chiqarish jarayonida mahalliy texnogen chiqindilarning qayta ishlanmalari va resurs tejamkor texnologiyalar, tabiiy gaz o'rnini bosuvchi yonilg'i-energetika resurslarining qayta tiklanadigan va muqobil turlarini qo'llash imkoniyatini o'rganish. | 2022-yil yanvar | Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov),* "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi *(A. Baxodirov),* Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi *(A. Maksudov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Energetika vazirligi *(A. Sultanov)* |
| 35. | Tabiiy dekorativ va pardozlash toshlari zaxiralarining yangi konlarini o'zlashtirish bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarini tezlashtirish. | 1. Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta ishlab chiqarish davlat dasturi doirasida tabiiy dekorativ va pardozlash toshlari (granit, marmar, travertin, gabbro va boshqalar) zaxiralarining yangi konlarini | 2021 — 2023-yillar | Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi *(B. Islamov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | o'zlashtirish bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarini olib borish. | | |
| | | 2. Har bir obyekt bo'yicha quyidagilarga oid aniq muddatlar va chora-tadbirlarni belgilashni nazarda tutuvchi "tarmoq jadvallari"ni ishlab chiqish va tasdiqlash:<br><br>geologiya-qidiruv ishlarini olib borishga geologik topshiriqlar va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br><br>prognoz resurslar va foydali qazilmalar zaxiralari o'sishini hisoblagan holda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish;<br><br>geologiya-qidiruv ishlarining natijalari to'g'risidagi hisobotlarni Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi majlislarida ko'rib chiqish uchun taqdim etish. | 2021-yil fevral | |
| 36. | Qurilishda energiya jihatidan samarador va energiya tejamkor | Qurilishda energiya jihatidan samarador va energiya tejamkor materiallarni (gazobeton, | 2021-yil fevral | "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi *(A. Baxodirov),* Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | materiallarni qo‘llash amaliyotini kengaytirish. | penobeton, polistirolbeton, bazalt asosida issiqlik saqlovchi materiallar, polistirol bilan to‘ldirilgan sendvich panellar va boshqalar) qo‘llashni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va tasdiqlash. | | |
| 37. | Bino va inshootlarning energetika auditi tizimini keng joriy etish. | 1. Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tasdiqlash. | 2020-yil dekabr | Energetika vazirligi *(A. Sultanov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| | | 2. Bino va inshootlarning energiya samaradorlik sinflari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar bazasini shakllantirish. | Doimiy ravishda | |
| 38. | Kompleks qurilish sinov laboratoriyasini tashkil qilish. | 1. Kompleks qurilish sinov laboratoriyasi binosini qurish va asbob-uskuna, mashina va mexanizmlar bilan jihozlash. | 2021-yil avgust | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |
| | | 2. Qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash obyektlarining konstruksiyalari, qurilish materiallari va buyumlarini sinovdan o‘tkazish ishlarini boshlash. | 2021-yil sentyabr | |
| **IV. Shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish** | | | | |
| 39. | Joriy etilgan elektron | 1. Elektron platformalarni | 2020-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Axborot texnologiyalari va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | platformalar ishlashini “Shaffof qurilish” MAT bilan qamrab olish. | Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududlarida joriy etish reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda Qurilish vazirligi tizimiga kiruvchi tarkibiy va hududiy boʻlinmalar mutaxassislarini ulardan foydalanish boʻyicha oʻqitish. | | kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq oʻqitishni amalga oshirish va elektron platformalardan sinov tarzida foydalanish. | 2021-yil fevral | |
| 40. | “Shaffof qurilish” MATning elektron platformalari va geoportalni idoralararo axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish. | 1. “Shaffof qurilish” MAT va geoportalni boshqa axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish boʻyicha texnologik yoʻriqnoma ishlab chiqish. | 2021-yil yanvar | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov),* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. “Shaffof qurilish” MATning quyidagilar bilan integratsiya qilinishini ta’minlash:<br><br>elektron hukumat tizimlari;<br><br>yuridik shaxslarning ma’lumotlar bazalari; | 2021-yil mart | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;<br><br>Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat statistika qo‘mitasining axborot tizimlari. | | |
| | | 3. Geoportalning “Yagona davlat kadastri tizimi” bilan integratsiya qilinishini ta’minlash. | 2021-yil mart | |
| 41. | Geoportal ma’lumotlar bazalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarining to‘liq kiritilishini ta’minlash. | 1. Ma’lumotlar bazalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini joylashtirish reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2021-yil fevral | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Ma’lumotlar bazalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini joylashtirish. | Reja-jadvalga ko‘ra | |
| 42. | Ilmiy-texnik kutubxona negizida “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlar” ma’lumotlar bazasini yaratish. | 1. Texnik topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2021-yil avgust | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Axborot texnologi�lari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| | | 2. “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlar” elektron ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish. | 2022-yil dekabr | |
| | | 3. Ma’lumotlar bazasini qurilish sohasidagi normativ hujjatlar bilan to‘ldirish. | 2023-yildan boshlab doimiy ravishda | |
| 43. | Fuqarolarga qurilayotgan | 1. Texnik topshiriqni ishlab | 2021-yil aprel� | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Axborot texnologiyalari va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | obyektlar to‘g‘risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish obyektlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish (foto va videomateriallar ko‘rinishida) va ularni qurilish sohasidagi nazorat bo‘yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi “Ogoh fuqaro” tizimini yaratish. | chiqish va tasdiqlash.<br>2. “Ogoh fuqaro” axborot tizimini ishlab chiqish.<br>3. “Ogoh fuqaro” axborot tizimini sinov tarzida ishga tushirish.<br>4. “Ogoh fuqaro” axborot tizimidan sinov tarzida foydalanish boshlanganligi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | <br>2021-yil sentyabr<br>2021yil noyabr<br>2022-yil yanvar | kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| 44. | Qurilish vazirligi tizimiga kiruvchi tarkibiy va hududiy bo‘linmalarni server va kompyuter asbob-uskunalari bilan jihozlash. | 1. Xatlovdan o‘tkazish hamda zarur server va kompyuter asbob-uskunalari ro‘yxatini aniqlash.<br>2. Server va kompyuter asbob-uskunalarini sotib olish bo‘yicha dastlabki hisob-kitob va buyurtmanomani tayyorlash hamda Moliya vazirligiga taqdim etish.<br>3. Server va kompyuter asbob-uskunalarini sotib olishga pul mablag‘larini ajratish.<br>4. Qurilish vazirligi tizimiga kiruvchi tarkibiy va hududiy bo‘linmalarni server va | 2021-yil mart<br>2021-yil aprel<br>2021-yil iyun<br>2021-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | kompyuter asbob-uskunalari bilan ta'minlash. | | |
| 45. | Qurilish vazirligi tizimiga kiruvchi tarkibiy va hududiy bo'linmalarning internet resurslariga keng polosali kirish imkoniyati bilan qamrab olish. | 1. Xatlovdan o'tkazish va internet resurslariga keng polosali kirish darajasini aniqlash. | 2021-yil mart | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| | | 2. Qurilish vazirligi tizimiga kiruvchi tarkibiy va hududiy bo'linmalarning internet resurslariga keng polosali kirishini ta'minlash uchun ro'yxatni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga taqdim etish. | 2021-yil aprel | |
| | | 3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan internet-resurslarga keng polosali kirishni ta'minlash. | 2022-yil iyun | |
| 46. | Shaharsozlik faoliyati subyektlari va aholini "Shaffof qurilish" MAT elektron platformalari va geoportaldan foydalanishga o'qitish. | 1. Shaharsozlik faoliyati subyektlari va aholini "Shaffof qurilish" MAT elektron platformalari va geoportaldan foydalanishga o'qitish reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2020-yil dekabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq, shu jumladan videokonferensaloqadan foydalangan | 2021-yil mart | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | holda o‘qitishni amalga oshirish. | | |
| 47. | “Shaffof qurilish” MAT elektron platformalari va geoportal funksionalining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlash. | 1. Press-reliz va taqdimot materialini ishlab chiqish.<br>2. “Shaffof qurilish” MAT elektron platformalari va geoportal funksionalini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2021-yil fevral<br>Doimiy ravishda | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(A. Xodjayev)* |
| 48. | Qurilishi tugallangan obyektlarning ijro tasvirlarini geofond ma’lumotlar bazasiga kiritish. | Qurilishi tugallangan obyektlarning ijro tasvirlari bo‘lishi majburiyligiga doir talabni nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqish, kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil iyul | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 49. | Yer uchastkalari, istiqbolda, shuningdek, bino va inshootlar to‘g‘risida axborot olish funksionalini yaratish. | 1. Geoportalni qurilish olib borish taklif qilinayotgan yer uchastkalari to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish qismida Kadastr agentligining axborot tizimi bilan integratsiya qilish.<br>2. Geoportalni ko‘chmas mulkning manzilli reyestri bilan integratsiya qilish. | 2021-yil iyun<br>2021-yil avgust | Kadastr agentligi *(X. Turaxujayev),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| 50. | Qurilish sohasidagi organlar tomonidan taqdim etilayotgan, qurilish sohasida ko‘rsatilayotgan | 1. Qurilish sohasida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarini xatlovdan o‘tkazish.<br>2. Qurilish sohasidagi davlat | 2021-yil aprel<br>2021-2022-yillar | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Adliya vazirligi*(R. Davletov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | davlat xizmatlarini takomillashtirish. | xizmatlarini “Shaffof qurilish” MAT bilan integratsiya qilish. | | |
| 51. | Joriy etilayotgan axborot tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash. | 1. Axborot xavfsizligi ta’minotini auditdan o‘tkazish. | 2021-yil sentyabr | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, “Kiberxavfsizlik markazi” DUK *(D. Chichenkov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| | | 2. Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va joriy etish. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 3. Joriy etilayotgan axborot tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligi ta’minotini monitoring qilish. | Doimiy ravishda | |
| **V. Shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish** | | | | |
| 52. | Arxitektura-qurilish yo‘nalishidagi kasb-hunar ta’limi muassasalarini “Elektron ta’lim” milliy tarmog‘iga ulash. | 1. “Elektron ta’lim” milliy tarmog‘iga ulanadigan arxitektura-qurilish yo‘nalishidagi kasb-hunar ta’limi muassasalari ro‘yxatini shakllantirish. | 2023-yil iyun | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Majidov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| | | 2. Arxitektura-qurilish yo‘nalishidagi kasb-hunar ta’limi muassasalarini server va kompyuter asbob-uskunalari bilan jihozlash. | 2023-yil dekabr | |
| | | 3. Arxitektura-qurilish yo‘nalishidagi kasb-hunar ta’limi muassasalarini “Elektron ta’lim” milliy tarmog‘iga ulash bo‘yicha ijrochilarning | 2024-yil yanvar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | qo‘shma qarorini qabul qilish. | | |
| 53. | Arxitektura va qurilish sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish. | 1. Yetakchi xorijiy, xususan Yaponiya, Turkiya, XXR oliy ta’lim muassasalari bilan muzokaralar o‘tkazish. | 2021-2022-yillar | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Majidov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi *(L. Qudra�ov),* Tashqi ishlar vazirligi *(A. Kamilov)* |
| | | 2. Quyidagilar bo‘yicha kelishuvlar tuzish:<br><br>O‘zbekiston Respublikasida arxitektura va qurilish sohasidagi xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallarini ochish;<br><br>xorijiy arxitektorlar va muhandislarni o‘qitishga jalb qilish;<br><br>talab eng yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha bitiruvchilarga ikki tomonlama diplom bergan holda qo‘shma ta’lim dasturlarini ochish. | Muzokaralar yakunlariga ko‘ra | |
| | | 3. Toshkent arxitektura-qurilish institutini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash bo‘yicha ijrochilarning quyidagilarni nazarda tutuvchi qo‘shma qarorini ishlab chiqish va qabul qilish:<br><br>milliy reytingdagi | 2021-yil avgust | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | pozitsiyalarini oshirishni ta'minlash;<br><br>uning xalqaro tan olingan tashkilotlar reytinglaridagi eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga (TOP-1000) kirishi. | | |
| 54. | Arxitektura-qurilish yo'nalishidagi kasb-hunar ta'limi muassasalari negizida o'qitishning zamonaviy va innovatsion uslublarini qo'llash. | 1. Kasb-hunar ta'limi muassasalarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qamrab olishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2021-yil fevral | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Majidov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| | | 2. O'qituvchilarni o'qitish va ularning malakasini oshirish bo'yicha turkum dasturlar ishlab chiqish. | 2021-yil may | |
| | | 3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan eng tajribali xodimlar orasidan o'qituvchilar tanlab olinishini ta'minlash. | Doimiy ravishda | |
| | | 4. Qurilish sohasidagi riv?jlanish tendensiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan | 2022-yil sentyabr | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | holda yangi avlod tarmoq darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari turkumini tayyorlash. | | |
| | | 5. Arxitektura va qurilish sohasidagi xorijiy adabiyotlardan foydalangan holda o‘qitishning innovatsion uslublarini qo‘llash. | 2023-yildan boshlab | |
| 55. | Respublikaning arxitektura-qurilish kollejlarida kouchinglar o‘tkazishni joriy qilish. | 1. Professional yuqori malakali kouchlarni taklif qilgan holda trening va seminarlar o‘tkazish orqali o‘qituvchilarni kouching tamoyillari va ko‘nikmalariga o‘qitish. | 2021-yil mobaynida | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Majidov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| | | 2. Kollejlarni rivojlantirish strategiyasini (kouch uslubidagi pedagogik kengash) ishlab chiqish. | 2022-yil may | |
| | | 3. O‘qitishdagi innovatsion yondashuvni aprobatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha pedagoglarning tajriba almashishini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarga kouching yondashuvini joriy etish. | 2022-yil oxirigacha | |
| | | 4. Imtihonlarga tayyorlanishda, o‘z maqsadlarini belgilashda va | 2023-yildan boshlab, | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | kasbga yo‘naltirishda psixologik-pedagogik kuzatuv ostida ta’lim olayotganlar uchun kouching-sessiyalar o‘tkazish. | doimiy ravishda | |
| | | 5. Pedagogik kengash, ijodiy guruhlar yig‘ilishlari, laboratoriyalar ishini olib borishda kouch uslubidan foydalanish. | 2023-yildan boshlab doimiy ravishda | |
| 56. | Qisqa muddatli kurslar doirasida qurilish sohasidagi tor ixtisoslik mutaxassislarini o‘qitish. | 1. Ishlab chiqarish ta’limining malakali ustalari va muhandis-texnik xodimlarni o‘qitish uchun jalb qilish. | 2020-2021-yillar | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Majidov)* |
| | | 2. Qisqa muddatli kurslarni joriy etish va qurilish sohasidagi tor ixtisoslik mutaxassislarini o‘qitish. | 2021-yil yanvar | |
| | | 3. Ta’lim oluvchilarning tanlangan kasbga muvofiq mutaxassisligini identifikatsiya qiluvchi maxsus kasbga muvofiqlik sertifikatlarini berish. | Kurslar tugagandan so‘ng | |
| | | 4. Sertifikatlarning QR-kodi va ma’lumotlar bazasini integratsiya qilish yo‘li bilan mutaxassislarni aniqlab olish tizimini yaratish. | 2021-yil dekabr | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 57. | Moslashtirish markazlarini hamda texnologiyalar va innovatsiyalarni transfer qilishni rivojlantirish. | Quyidagilarni nazarda tutgan holda 2021 — 2023-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va tasdiqlash:<br><br>ilm-fan va real sektorning samarali o‘zaro aloqasi mexanizmlarini shakllantirish;<br><br>qurilish tarmog‘i ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma va texnologik yechimlarga bo‘lgan ehtiyojlarini muntazam ravishda monitoring qilish;<br><br>arxitektura va qurilish sohasida olib borilayotgan fundamental, qidiruv va amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar samaradorligini oshirish. | 2021-yil mart | Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |
| 58. | Iste’dodli yoshlarni arxitektura va qurilish fanlari sohasidagi ilmiy va ijodiy faoliyatga jalb etishni rag‘batlantirish tizimini yaratish. | 1. Yosh olimlar uchun kasbiy tanlovlar tizimini joriy etish. | 2021-yil mart | Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov),* Qurilish vazirligi *(B. Zakirov),* Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| | | 2. Suhbat o‘tkazish hamda iste’dodli mutaxassislarni loyiha va qurilish pudrat tashkilotlariga ishga joylashtirish choralarini ko‘rish. | Doimiy ravishda | |
| 59. | Arxitektura va qurilish | 1. O‘zaro manfaatli xalqaro | 2022-yil may | Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov),* Qurilish vazirligi *(B.* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | sohasidagi ilmiy salohiyat natijadorligini oshirish. | ilmiy va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, mahalliy olimlar va tashkilotlarning xalqaro ilmiy uyushmalar va boshqa professional birlashmalarda ishtirok etishini ta’minlash tizimini yaratish.<br>2. Arxitektura va qurilish sohasidagi jurnallar reytingini oshirish choralarini ko‘rish. | <br>Doimiy ravishda | *Zakirov),* Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Majidov)* |
| 60. | Kadrlarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda qurilish organlari va muassasalari tizimiga malakali xo�imlarni jalb qilish. | 1. Boshqarish, malaka talablari asosida kadrlarni tanlab olishning zamonaviy uslublarini joriy etish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish.<br>2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi idoraviy hujjatni ishlab chiqish:<br>NR-menejment tizimini joriy qilish, shu asosda Qurilish vazirligining ijobiy imijini, kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, boshqarish va nazorat qilishning samarali tizimini yaratish;<br>kadrlarga oid marketing tizimini faollashtirish, malakali kadrlarni jalb qilishga qaratilgan | 2021-yil iyun<br>2021-yil avgust | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | rekrutmentning yangi uslublarini (onlayn-rekrutment, faol xedxanting) joriy etish;<br><br>kadrlarga oid kontrolling tizimini (o‘zini o‘zi nazorat qilish tizimini) rivojlantirish;<br><br>Qurilish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens tizimini joriy etish. | | |
| | | 3. Quyidagilar bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish:<br><br>qurilish organlari va muassasalari xodimlari uchun xalqaro ekspertlar ishtirokida xorijiy amaliyot, seminarlar, mahorat darslari va o‘quv kurslarini tashkil etish;<br><br>qonun hujjatlaridagi yangiliklar va dolzarb muammolarni hisobga olgan holda Qurilish vazirligi tizimi xodimlari uchun | 2021 — 2023-yillar | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | o‘quv dasturlarini yaratish va yangilash;<br><br>mehnat jamoasini professionalizm, xodimlarning yangiliklarga (stress-menejment, taym-menejment, timbilding va boshqalar) intiluvchanligi va moslashuvchanligiga erishish maqsadida ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. | | |
| 61. | Xodimlarni baholash tizimini takomillashtirish. | Quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi KPI tizimini joriy qilish:<br><br>xodimlarga sifat va son jihatidan talablar va ko‘rsatkichlar qo‘yish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini aniqlash;<br><br>ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijro intizomini baholash;<br><br>kadrlar malakasini oshirish tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish;<br><br>ish haqi to‘lashning yangi uslublarini joriy qilish (xodimlar faoliyati | 2021-yil avgust | Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | samarad�rligining reyting tizimi mezonlarini, idoraviy rag'batlantirish dasturlarini yangilash). | | |

*(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmoniga
3-ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo'yicha

## MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Ko'rsatkich nomi | Joriy holat | Maqsad: | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2021-yil | 2023-yil | 2025-yil |
| 2. | 2025-yilga borib milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini xalqaro normativ va standartlar bilan uyg'unlashtirishga erishish. | - | 10% | 30% | 50% |
| 3. | 2025-yilga borib "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi doirasida qo'shimcha to'rtta elektron platforma yaratilishini ta'minlash. | - | 1 | 2 | 4 |
| 4. | 2025-yilga borib loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning "hajm" uslubini joriy etish ulushini respublikadagi qurilish obyektlarining umumiy soniga nisbatan 50 foizgacha yetkazish. | - | - | 25% | 50% |
| 5. | 2025-yilga borib arxitektura va qurilish sohasidagi oliy ta'lim muassasalaridan birining xalqaro tan olingan tashkilotlar reytinglaridagi Osiyo mamlakatlarining eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga (TOP-1000) kirishi. | - | - | - | 1 |
| 6. | 2025-yilga borib shaharlarning barchasini bosh rejalar bilan qamrab olishga erishish. | 95% | 96% | 98% | 100% |
| 7. | 2025-yilga borib shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olishga erishish. | 14% | 18% | 22% | 25% |

*(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmoniga
4-ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-maydagi “Kapital qurilishda loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish tartibini optimallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5445-son Farmoni 1-bandining ikkinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat rivojlanish dasturlariga kiritilgan” so‘zlari “budjet tizimi budjetlaridan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafilligi ostidagi qarzlar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni istisno etgan holda” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-avgustdagi “Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo‘yicha huquqiy eksperiment to‘g‘risida”gi PF-5515-son Farmonida:

a) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) 2-bandda:

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi-oltinchi xatboshilar tegishlicha to‘rtinchi-beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-son Farmonida:

a) 1-bandning “b” kichik bandida:

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi — to‘qqizinchi xatboshilar tegishlicha beshinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 5-bandning “a” kichik bandida:

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi xatboshi tegishlicha to‘rtinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5624-son Farmoni 1-bandining “g” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“g) Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga uni davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ etib belgilagan holda Agentlikning mazkur sohadagi vakolatlarini oʻtkazish. Bunda Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi portalida qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha operator etib belgilansin”.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5963-son Farmoni 1-bandning “g” kichik bandi uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qurilish sohasida oʻtkaziladigan davlat xaridlarida elektron reytinglarga kiritilgan va tegishli mezonlar (ish tajribasi, moliyaviy barqarorligi, shtatida maʼlumotlari “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan malakali xodimlarning mavjudligi va boshqa mezonlar) boʻyicha ijobiy koʻrsatkichlarga ega boʻlgan loyiha-qidiruv va qurilish pudrat tashkilotlarining ishtirok etishiga yoʻl qoʻyiladi”.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi “Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan oʻtkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3550-son qarorining 2-ilovasi quyidagi mazmundagi $3^2$-band bilan toʻldirilsin:

“$3^2$. Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va taʼmirlash boʻyicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini amalga oshirish uchun tender (tanlov) hujjatlarini va texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan oʻtkazishda tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini va ularning narx parametrlarini baholash qismida ekspertiza oʻtkaziladi”.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3953-son qarorining ilovasi quyidagi mazmundagi 39-band bilan toʻldirilsin:

“39. Texnik tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyati sohasidagi xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish”.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-avgustdagi “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan boʻsh turgan yer uchastkalarini berish hamda arxitektura-qurilish ishlarini amalga

oshirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4427-son qarorida:

2-bandning “a” kichik bandi beshinchi xatboshisidan “, arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqiladi. Bunda arxitektura-rejalashtirish topshirig‘ini ishlab chiqish xarajatlari yer uchastkasini elektron onlayn-auksion orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar hisobidan qoplanadi” so‘zlari chiqarib tashlansin;

2-bandning “a” kichik bandi oltinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-fevraldagi “Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-4586-son qarorida:

2-bandi quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qurilish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillariga rioya qilinmagan hamda aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha kamida ikkita ko‘rsatma bajarilmagan taqdirda qurilish-montaj ishlarini to‘xtatib qo‘yish va demontaj ishlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi da’vo bilan sudga murojaat qilish”;

uchinchi — beshinchi xatboshilar tegishlicha to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.11.2020-y., 06/20/6119/1570-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son)*